O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.5

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 5
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

5-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 5
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (IJCSTR)
VOLUME 2 ISSUE 5 / ISSN 2181-3884

ANTONIMLARNI O‘RGATISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH O‘QUVCHILARNING O‘QUV MOTIVATSIYASI VA OBRAZLI NUTQINI OSHIRISHNING TASHKILIY SHARTI SIFATIDA

Murtazayeva Umida Isakulovna
O‘rolova Maxburat Nodir qizi
Narzikulova Shaxnoza Asatilloyevna
Parmanova Mashhura Tugalboy qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, dotsent.
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, magistrant.
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, magistrant.
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, magistrant.
e-mail: murtazayeva1982@yandex.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0002-1801-4465

Annotatsiya.

Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida antonimlarni o‘rgatish jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi va obrazli nutqini rivojlantirishning muhim tashkiliy sharti sifatida tahlil qilinadi. O‘yin faoliyati psixologiyasi va ARCS motivatsion modeliga tayangan holda o‘yinli darslarni tashkil etish modeli hamda antonimlarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlar tizimi taklif etiladi. Shuningdek, mazkur o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirish, antonimik juftliklarni o‘zlashtirish va obrazli nutqini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari hamda ularning samaradorligini ta’minlovchi tashkiliy-didaktik shart-sharoitlar nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: antonim, antonimik juftlik, tazod, didaktik o‘yin, o‘quv motivatsiyasi, obrazli nutq, tashkiliy shart, boshlang‘ich ta’lim.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГР ПРИ ИЗУЧЕНИИ АНТОНИМОВ КАК ОРГАНИЗАЦИОННОЕ УСЛОВИЕ ПОВЫШЕНИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ И РАЗВИТИЯ ОБРАЗНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

Муртазаева Умида Исакуловна
Уролова Махбурат Нодир кизи
Нарзикулова Шахноза Асатиллоевна
Парманова Машхура Тугалбой кизи

Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё, доцент.
Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё, магистрант.
Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё, магистрант.
Самаркандский филиал Ташкентского международного университета Кимё, магистрант.

Аннотация.

В статье рассматривается использование дидактических игр при изучении антонимов на уроках родного языка в начальных классах как важное организационное условие повышения учебной мотивации и развития образной речи учащихся. На основе психологии игровой деятельности и мотивационной модели ARCS предлагаются модель организации игровых уроков и система дидактических игр, направленных на изучение антонимов. Кроме того, теоретически обосновываются педагогические возможности применения данных игр для повышения интереса учащихся к образовательному процессу, усвоения антонимических пар и развития образной речи, а также организационно-дидактические условия, обеспечивающие их эффективность.

Ключевые слова: антоним, антонимическая пара, антитеза, дидактическая игра, учебная мотивация, образная речь, организационное

условие, начальное образование.

THE USE OF DIDACTIC GAMES IN TEACHING ANTONYMS AS AN ORGANIZATIONAL CONDITION FOR ENHANCING STUDENTS' LEARNING MOTIVATION AND FIGURATIVE SPEECH

Murtazayeva Umida Isakulovna
O'rolova Maxburat Nodir qizi
Narzikulova Shaxnoza Asatilloyevna
Parmanova Mashhura Tugalboy qizi

Samarkand Branch of Kimyo International University in Tashkent, Associate Professor.
Samarkand Branch of Kimyo International University in Tashkent, Master's Student.
Samarkand Branch of Kimyo International University in Tashkent, Master's Student.
Samarkand Branch of Kimyo International University in Tashkent, Master's Student.

Abstract.

This article examines the use of didactic games in teaching antonyms during native language lessons in primary education as an important organizational condition for enhancing students' learning motivation and developing their figurative speech. Drawing on the psychology of play-based activities and the ARCS motivational model, the article proposes a model for organizing game-based lessons and a system of didactic games designed to facilitate the learning of antonyms. Furthermore, it provides a theoretical justification for the pedagogical potential of these games in increasing students' interest in learning, facilitating the acquisition of antonymic pairs, and developing figurative speech, as well as the organizational and didactic conditions necessary to ensure their effectiveness.

Keywords: antonym, antonymic pair, antithesis, didactic game, learning motivation, figurative speech, organizational condition, primary education.

Kirish. Zamonaviy boshlang'ich ta'limning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda o'qishga bo'lgan barqaror qiziqishni shakllantirish va ularning o'z fikrini erkin, obrazli hamda ta'sirli ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim oluvchilarning intellektual va ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o'yin hali ham muhim faoliyat turi bo'lib qoladi. Shu sababli o'yin elementlarini dars jarayoniga maqsadli kiritish o'quvchilarning faolligi va qiziqishini oshirishning tabiiy yo'li hisoblanadi [9; 10]. Ona tili darslarida esa o'yin faqat dam olish vositasi emas, balki til hodisalarini chuqur va ongli o'zlashtirishning samarali tashkiliy sharti bo'lishi mumkin.

Tilning leksik tizimida antonimlar alohida o'rin tutadi. Ular narsa, belgi va harakatlarni qarama-qarshi qo'yish orqali fikrni yorqin, ixcham va ta'sirli ifodalash imkonini beradi hamda badiiy nutqdagi tazod san'atining asosini tashkil etadi [2; 3]. Shu bilan birga, antonimlarning juftlik xususiyati ularni o'yin shaklida o'rgatish uchun juda qulaydir: "Teskarisini top", "Juftini top" kabi topshiriqlar bolalarga tabiiy va qiziqarli tuyuladi. Biroq amaliyotda antonimlar ko'pincha qisqa ta'rif va bir xil mashqlar orqali o'rgatiladi, didaktik o'yinlar esa tizimsiz qo'llanadi. Ushbu maqolaning maqsadi antonimlarni o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanishni o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi va obrazli nutqini rivojlantirishning tashkiliy sharti sifatida asoslash hamda o'yinli darsni tashkil etish modeli va o'yinlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek tilshunosligida antonimiya hodisasi keng o'rganilgan. Sh. Rahmatullayev, N. Mamatov va R. Shukurov tomonidan tuzilgan "O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati" o'zbek tilidagi antonimlarni tizimli tavsiflagan muhim manba bo'lib, unda antonimik juftliklarning ma'nosi va qo'llanishi misollar bilan izohlab berilgan [2]. U. Tursunov, J. Muxtorov va Sh. Rahmatullayevning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asarida lug'aviy antonimiya bilan bir qatorda kontekstual antonimiya hodisasi ham ajratib ko'rsatilgan, ya'ni ayrim so'zlar faqat muayyan matnda qarama-qarshi ma'no kasb etishi qayd etilgan [3]. Sh. Rahmatullayev "Hozirgi adabiy o'zbek tili" darsligida antonimlarni leksik-semantik munosabatlar tizimida ko'rib chiqqan [4]. Bu qarashlar metodika uchun muhim: boshlang'ich sinfda o'quvchilarni faqat tayyor antonimik juftliklar bilan tanishtirish yetarli emas, ularni matnda qarama-qarshilik hosil qilish orqali fikrni obrazli ifodalashga ham o'rgatish lozim.

Rus va jahon tilshunosligida ham antonimiya chuqur tadqiq etilgan. L. A. Novikov antonimlarni qarama-qarshilikning turli ko'rinishlari asosida semantik tahlil qilib, ularning tildagi o'rnini asoslagan [6]. J. Lyons antonimlarni darajalanuvchi (katta – kichik), komplementar, ya'ni bir-birini inkor etuvchi (tirik – o'lik) va konversiv (bermoq – olmoq) munosabatlarga ajratgan [7]. S. Jones esa korpus materiallari asosida antonimlarning matnda qanday vazifalarni

bajarishini, xususan, qarama-qarshi qo‘yish va ta’kidlash vazifalarini o‘rgangan [8]. Ushbu tasniflar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun soddalashtirilgan holda qo‘llanishi mumkin. Masalan, darajalanuvchi antonimlar orasidagi oraliq so‘zlarni topish (issiq – iliq – sovuq) o‘yini bolalarda so‘zlarning ma’no nozikliklarini sezish qobiliyatini rivojlantiradi. Antonimlarning matndagi qarama-qarshi qo‘yish vazifasi esa obrazli nutqni shakllantirishning bevosita vositasi hisoblanadi.

O‘yin faoliyati psixologiya va pedagogikada keng o‘rganilgan. L. S. Vygotskiy o‘yinni bola rivojlanishining manbai deb hisoblab, unda bolaning yaqin rivojlanish zonasi yaratilishini ta’kidlagan [10]. D. B. Elkonin o‘yin psixologiyasini tizimli o‘rganib, o‘yinning bola shaxsi va tafakkuri rivojidagi ahamiyatini asoslagan [9]. J. Huizinga o‘yinni qoidalarga asoslangan, ixtiyoriy va zavq beruvchi faoliyat sifatida ta’riflagan [12]. A. K. Bondarenko didaktik o‘yinlarning tarkibiy qismlari sifatida didaktik vazifa, o‘yin harakatlari va qoidalarni ajratib ko‘rsatgan [11]. Motivatsiya nuqtayi nazaridan A. K. Markova o‘quv motivatsiyasini bilish va ijtimoiy motivlar tizimi sifatida tahlil qilgan [13], R. M. Ryan va E. L. Deci esa ichki motivatsiya avtonomiya, kompetentlik va bog‘liqlik ehtiyojlari qondirilganda kuchayishini ko‘rsatganlar [14]. Biroq tahlil antonimlarni o‘rgatishda didaktik o‘yinlarni motivatsiya va obrazli nutq bilan bog‘laydigan yaxlit tashkiliy tizim yetarlicha ishlab chiqilmaganini ko‘rsatdi.


TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida tilshunoslik, psixologiya va ona tili o‘qitish metodikasiga oid adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish va modellashtirish qo‘llanildi. Empirik metodlar qatorida ona tili darslarini kuzatish, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini tahlil qilish, o‘qituvchilar bilan suhbat, so‘rovnoma hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari belgilandi. Dars kuzatuvlarida o‘yinli va an’anaviy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning faolligi, topshiriqni ixtiyoriy davom ettirish istagi, guruhda hamkorlik qilishi kabi motivatsiya belgilariga, shuningdek, nutqida antonimlar va qarama-qarshi qo‘yish usulidan foydalanish darajasiga e’tibor qaratildi. Antonimik juftliklarni tanlashda Sh. Rahmatullayev va hammualliflarining antonimlar lug‘ati [2] asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqotning normativ asosi sifatida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun [1] talablari olindi.

Tadqiqot natijalarini baholash uchun ikki guruh mezonlar belgilandi. Birinchi guruh — o‘quv motivatsiyasi mezonlari bo‘lib, ular J. M. Kellerning ARCS modeliga [15] tayangan holda ishlab chiqildi: diqqat, ya’ni o‘quvchining o‘yin davomida diqqatini saqlay olishi; ahamiyatlilik, ya’ni o‘yinda o‘rganilgan bilimni hayot bilan bog‘lay olishi; ishonch, ya’ni topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishga bo‘lgan ishonchi; qoniqish, ya’ni natijadan zavq olishi va topshiriqni yana bajarish istagi. Ikkinchi guruh — obrazli nutq mezonlari: antonimik zaxira, ya’ni antonimik juftliklarni bilish va tez topa olish; aniqlik, ya’ni matnga mos antonimni tanlash; obrazlilik, ya’ni qarama-qarshi qo‘yish orqali tasvir yaratish; ta’sirchanlik, ya’ni his-tuyg‘ularni antonimlar yordamida ifodalash. Mezonlarni belgilashda M. R. Lvovning nutq sifatlari haqidagi qarashlari [16] ham inobatga olindi. Har bir mezon bo‘yicha past, o‘rta va yuqori darajalar ajratildi.

NATIJALAR

Nazariy tahlil va dars kuzatuvlari asosida antonimlarni o‘rgatishda didaktik o‘yinlardan foydalangan holda darsni tashkil etishning uch bosqichli modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Birinchi — tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchi o‘yinning didaktik vazifasini belgilaydi, o‘quvchilarning yoshi va bilim darajasiga mos antonimik materialni tanlaydi, o‘yin qoidalarini sodda va aniq tushuntiradi. Ikkinchi — o‘yinni o‘tkazish bosqichida o‘quvchilar o‘yin harakatlarini bajaradilar: antonim topadilar, juftlik tuzadilar, matn yaratadilar. Bu bosqichda musobaqa va hamkorlik elementlari uyg‘unlashtiriladi. Uchinchi — yakunlash va tahlil bosqichida o‘yin natijalari muhokama qilinadi, o‘quvchilar qaysi antonimlarni o‘rganganlarini va ularni qanday qo‘llaganlarini tahlil qiladilar. Model A. K. Bondarenko ajratgan didaktik vazifa, o‘yin harakatlari va qoidalar kabi tarkibiy qismlarga [11] hamda J. M. Kellerning ARCS modeliga [15] tayanadi. Modelning har bir bosqichi motivatsiyaning muayyan tarkibiy qismini qo‘llab-quvvatlaydi.



1-rasm. Antonimlarni o‘rgatishda didaktik o‘yinli darsni tashkil etish modeli (muallif ishlanmasi)

Modelni amalga oshirish uchun antonimlarga oid didaktik o‘yinlar tizimi ishlab chiqildi (1-jadval). Jadvalda har bir o‘yinning mazmuni, o‘yin harakati, qo‘llab-quvvatlanadigan motivatsion tarkibiy qism va obrazli nutq natijasi ko‘rsatilgan. O‘yinlar soddadan murakkabga tamoyili asosida joylashtirilgan. “Teskarisini ayt” to‘p o‘yini dars boshida diqqatni jalb qiladi va antonimik zaxirani faollashtiradi. “Juftini top” kartochkali o‘yini juftlikda ishlashni talab qiladi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni shakllantiradi. “Oraliq so‘z” o‘yinida o‘quvchilar issiq – iliq – sovuq kabi darajalanuvchi antonimlar orasidagi so‘zni topadilar. Bu J. Lyons tasnifidagi darajalanuvchi antonimiyaning [7] soddalashtirilgan qo‘llanishidir. “Maqol ustasi” o‘yini xalq maqollaridagi antonimlarni topishga, “Ikki rasm” o‘yini esa qarama-qarshi tasvirlarni antonimlar yordamida ta’riflashga qaratilgan bo‘lib, bevosita obrazli nutqni rivojlantiradi.

1-jadval

Antonimlarni o‘rgatishga oid didaktik o‘yinlar tizimi

O‘yin nomi	**Mazmuni va o‘yin harakati**	**Motivatsion tarkibiy qism (ARCS)**	**Obrazli nutq natijasi**
“Teskarisini ayt”	O‘qituvchi so‘z aytib to‘p otadi (katta, issiq, kun), o‘quvchi to‘pni ilib olib antonimini aytadi.	Diqqat	Antonimik zaxirani faollashtirish
“Juftini top”	Juftlikda kartochkalardagi so‘zlardan antonimik juftliklar tuziladi (baland - past, yaxshi - yomon).	Ishonch, hamkorlik	Aniqlik
“Oraliq so‘z”	Darajalanuvchi antonimlar orasidagi so‘z topiladi: issiq - ... - sovuq (iliq).	Ishonch, qiziqish	Ma’no nozikligini sezish
“Maqol ustasi”	Maqollardagi antonimlar topiladi va izohlanadi: “Yaxshidan ot qoladi, yomondan - dod”.	Ahamiyatlilik	Qarama-qarshi qo‘yish orqali ifoda
“Ikki rasm”	Qish va yoz, kun va tun rasmlari antonimlar yordamida 4-5 gap bilan ta’riflanadi va sinfga o‘qib beriladi.	Qoniqish	Obrazlilik, ta’sirchanlik

Didaktik o‘yinlarning samaradorligi ularni tashkil etishning muayyan shart-sharoitlariga bog‘liq ekani aniqlandi. Birinchidan, o‘yin darsning didaktik maqsadiga bo‘ysundirilishi, ya’ni o‘yin uchun o‘yin emas, balki aniq til ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ikkinchidan, o‘yin qoidalari sodda, adolatli va barcha o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Uchinchidan, musobaqa elementlari me’yorida qo‘llanishi zarur, chunki haddan tashqari raqobat o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarda ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli guruhli va jamoaviy o‘yinlarga ustuvorlik berildi. To‘rtinchidan, o‘yin yakunida albatta tahlil va refleksiya o‘tkazilishi kerak, aks holda o‘yin zavqli mashg‘ulot bo‘lib qoladi-yu, o‘rganilgan bilimlar mustahkamlanmaydi. Beshinchidan, o‘yin turlari muntazam yangilanib turishi lozim. Bu shartlar R. M. Ryan va E. L. Deci ta’kidlagan kompetentlik va bog‘liqlik ehtiyojlarini [14] qondirishga hamda o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Taklif etilgan model va o‘yinlar tizimi ilmiy adabiyotlardagi asosiy qarashlar bilan uyg‘un. L. S. Vygotskiy va D. B. Elkonin ta’kidlaganidek, o‘yin bola rivojlanishining muhim manbai hisoblanadi [9; 10]. Shu bois uni ona tili darsining tashkiliy sharti sifatida qo‘llash kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlariga to‘liq mos keladi. An’anaviy amaliyotda didaktik o‘yinlar ko‘pincha dars oxirida vaqtni to‘ldirish yoki dam olish maqsadida tasodifiy qo‘llanadi. Taklif etilayotgan yondashuvda esa o‘yin darsning barcha bosqichlariga maqsadli kiritiladi va har bir o‘yin aniq didaktik vazifa hamda motivatsion tarkibiy qism bilan bog‘lanadi. Bundan tashqari, antonimlarning matndagi qarama-qarshi qo‘yish vazifasi [8] “Maqol ustasi” va “Ikki rasm” kabi o‘yinlar orqali amaliy ko‘nikmaga aylantiriladi. Natijada antonim o‘quvchi uchun yodlanadigan juftlik emas, balki fikrni yorqin va obrazli ifodalash vositasiga aylanadi. Bu esa K. Qosimova va hammualliflari ta’kidlagan leksik ishni nutq o‘stirish bilan bog‘lash talabiga [5] mos keladi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, taklif etilgan model va o‘yinlar tizimining samaradorligini keng ko‘lamli pedagogik tajriba-sinov ishlari hamda miqdoriy tahlillar orqali yanada chuqurroq isbotlash talab etiladi. Ikkinchidan, kontekstual antonimlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘yin orqali o‘rgatish metodikasi alohida tadqiq etilishi lozim, chunki bu hodisa o‘quvchidan matnni chuqur tushunishni talab qiladi [3]. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar asosidagi interaktiv o‘yinlar, masalan, elektron kartochkalar va onlayn viktorinalar antonimlarni

o‘rgatishda motivatsiyani oshirishning istiqbolli vositasi bo‘lishi mumkin, biroq ularning boshlang‘ich sinf sharoitidagi pedagogik samaradorligi hali yetarlicha o‘rganilmagan. To‘rtinchidan, o‘quv motivatsiyasini o‘lchash uchun o‘zbek tilida standartlashtirilgan diagnostik vositalarni ishlab chiqish zarur. Bu yo‘nalishlardagi izlanishlar boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, antonimlarni o‘rgatishda didaktik o‘yinlardan maqsadli foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv motivatsiyasi va obrazli nutqini rivojlantirishning muhim tashkiliy sharti hisoblanadi. Antonimlarning juftlik va qarama-qarshilik xususiyati ularni o‘yin shaklida o‘rgatish uchun qulay imkoniyat yaratadi, o‘yin esa o‘quvchilarning diqqatini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini va qoniqish hissini kuchaytiradi. Tayyorgarlik, o‘yinni o‘tkazish hamda yakunlash va tahlil qilish bosqichlaridan iborat model hamda soddadan murakkabga tamoyili asosida tuzilgan o‘yinlar tizimi bu jarayonni izchil tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: didaktik o‘yinlarni darsning aniq didaktik maqsadiga bo‘ysundirish; o‘yin qoidalarini sodda va adolatli qilish; raqobatdan ko‘ra hamkorlikka asoslangan guruhli o‘yinlarga ustuvorlik berish; har bir o‘yin yakunida tahlil va refleksiya o‘tkazish; maqol, topishmoq va tasviriy topshiriqlar orqali antonimlarni obrazli nutqda qo‘llashga o‘rgatish. Ushbu tavsiyalar o‘quvchilarning ona tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirish va nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/5013007.

2. Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.

3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992.

4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.

5. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.

6. Новиков Л. А. Антонимия в русском языке: семантический анализ противоположности в лексике. – Москва: Издательство МГУ, 1973.

7. Lyons J. Semantics. – Vol. 1–2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.

8. Jones S. Antonymy: A Corpus-Based Perspective. – London: Routledge, 2002.

9. Эльконин Д. Б. Психология игры. – Москва: Педагогика, 1978.

10. Выготский Л. С. Игра и её роль в психическом развитии ребёнка // Вопросы психологии. – 1966. – № 6. – С. 62–76.

11. Бондаренко А. К. Дидактические игры в детском саду. – Москва: Просвещение, 1991.

12. Huizinga J. Homo Ludens: A Study of the Play-Element in Culture. – London: Routledge & Kegan Paul, 1949.

13. Маркова А. К. Формирование мотивации учения в школьном возрасте. – Москва: Просвещение, 1983.

14. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55, № 1. – P. 68–78.

15. Keller J. M. Motivational Design for Learning and Performance: The ARCS Model Approach. – New York: Springer, 2010.

16. Львов М. Р. Методика развития речи младших школьников. – Москва: Просвещение, 1985.